

## **Ilmiy izlanishlar davom etmoqda**

Katta Farg'ona magistral kanali boshqarmasi bilan tuzilgan № 15/2021-sonli «Suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan sug'oriladigan maydonlarda tuproq sharoitini inobatga olgan holda mavjud kollektor-drenaj tarmoqlarining texnik parametrlarini takomillashtirish» mavzusidagi xo'jalik shartnomasining 2021 - yilda rejalashtirilgan ilmiy tadqiqot ishlari bajarish maqsadida institut Birinchi prorektori B.Mirzayevning 2021-yil 27-oktyabrdagi 89 x/s – sonli buyrug'iga asosan, loyihada ishtirok etayotgan bir guruh prof-o'qituvchi hamda doktorantlar yurtimizning Farg'ona viloyatida xizmat safarida bo'lib qaytdilar.



Xizmat safari davomida viloyatda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilg'or sanalgan "Farg'ona global tekstil" klasteri hamda "21-asr xirmoni" fermer xo'jaliklari ekin maydonlarida joriy vegetatsiya mavsumidagi o'zgarishlarni baholash maqsadida tadqiqotlar olib borildi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**